



## REVMATOID ARTRIT YUQORI FAOLLLIGI BO'LGAN BEMORLAR QON ZARDOBIDA LIPID HOLATINING O'ZGARISHI

Solixov B.M.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

*1-son Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası assistenti*

**Annotatsiya:** *Revmatoid artrit bo'g'imlarning destruktiv zararlanishi bilan kechuvchi idiopatik autoimmun kasallikdir. Revmatoid artrit bilan uzoq vaqt kasallanish yurak-qon tomir tizimida o'zgarishlar paydo qilib qonning reologiyasini buzulishiga, undagi aterogen lipoproteidlar miqdorining ortishiga va oqibatda qon tomirlar devorida ateroskleroz kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Revmatoid artrit yuqori faolligi bu jarayonni tezlashtiruvch omil bo'lib hisoblanadi va kasallik faolligining pasayishi aterogenez jarayonini susayishiga olib keladi.*

**Kalit so'zlar:** *revmatoid artrit, DAS 28, lipoproteidlar.*

**Tadqiqot maqsadi** – revmatoid artrit yuqori faolligi bo'lgan bemorlar qon zardobida lipid holatining o'zgarishini aniqlash.

**Tadqiqot material va metodlari.** TTA 1-klinikasi revmatologiya bo'limida statsionar davolanayotgan revmatoid artrit bilan og'rikan 44 nafar bemorning kasallik tarixini tahlil qildik. Barcha bemorlar DAS 28 ga muvofiq kasallik yuqori faolligiga ega edi. Bunda DAS 28 bo'yicha faollik qiymatlari 5,13 dan 8,37 gacha qayd etildi. Tadqiqotdagi bemorlarning 41 nafarini ayollar, 5 nafari erkaklar tashkil qildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 56 yoshni tashkil etdi. Qon lipid spektrini tahlil qilishda biz kardiologiya bo'yicha milliy yo'riqnomada belgilangan va butunjahon kardiologiya ilmiy jamiyati tomonidan tavsiya etilgan optimal ko'rsatkich qiymatlaridan foydalandik: umumiy xolesterin qiymatlari - 5 mmol/l dan kam, PZLP xolesterin - 3 mmol/l dan kam, YUZLP xolesterin - ayollarda 1,2 mmol/l dan va erkaklarda 1 mmol/l dan ortiq, triglitseridlar - 1,77 mmol/l dan kam.

**Natijalar va uning muhokamasi.** Tekshirilgan bemorlar orasida 36 kishi dislipidemiya aniqlanib, bu barcha tadqiqot ishtirokchilarining 81,8% ni tashkil qildi. Shu bilan birgalikda, umumiy xolesterin darajasining oshishi 36 ta holatdan 28 tasida (77,8%) qayd etilib, lipid spektrining boshqa tarkibiy qismlarining tarkibini buzish bilan bog'liq bo'ldi. RA bilan kasallangan bemorlarning hech birida izolirlangan giperxolesterinemiya kuzatilmadi. Umumiy xolesterin o'rtacha qiymati 5,7 mmol/l ni tashkil etib, optimal qiymatlardan baland bo'ldi. 36 holatdan 24 tasida triglitseridlar darajasining ortishi, 21 ta holatda YUZLPning kamayishi qayd etildi, bu mos ravishda 58,33% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, bemorlar guruhida triglitserid tarkibining o'rtacha qiymati 1,6 mmol/l, YUZLP - 1,2 mmol/l ni tashkil etdi. Eng muhim jihati PZLP darajasining oshishida bo'ldi. U 31 nafar bemorda aniqlanib va tadqiqot ishtirokchilarining 70,45 foizini tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichning o'rtacha qiymati oshib, 3,6 mmol/l ni tashkil qildi.

**Xulosa.** Tadqiqotimiz natijalari yuqori faollikdagi revmatoid artritli bemorlarda qon lipid profilidagi o'zgarishlar mavjudligini aniq ko'rsatib turibdi. Eng aniq o'sish umumiy



xolesterin va PZLP darajasida kuzatildi. Bemorlarning ko'pchiligida kuzatilgan bunday buzilishlar yuqori aterogenlik va yurak-qon tomir kasalliklari xavfi bilan bog'liqdir.